



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



No7
2025

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiyaga fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 102 sahifa,
1-iyul, 2025-yil.

BOSH MUHARRIR:

Umarova H. O'. – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti rektori

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik

Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik

Umarova H.O'. – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor

Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor

Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor

Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor

Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor

Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor

Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor

Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)

Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)

Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)

Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)

Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)

Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)

Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent

Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor

Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor

Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor

G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)

Somurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayeva F.O. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti

Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor

Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)

Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent

Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori

Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'icha falsafa doktori (PhD)

Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari

Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Umarova H. O'. – Minister of Preschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Rector of the Nizami National Pedagogical University of Uzbekistan

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G' B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Umarova H.O'. – Minister of Preschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F.O. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – doctor of philosophy (PhD) in psychology

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

“Maktabgacha va maktab ta’limi” jurnali Oliy attestatsiya komissiyasining 26-08-2024-yildagi №11-05-4381/01-Kengash tavsiyasiga ko’ra, pedagogika fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning tadqiqot ishlari yuzasidan dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro’yxatiga kiritilgan.

Asos: OAK Pedagogik texnologiyalar va psixologik tadqiqotlar bo’yicha ekspert kengashi tavsiyasi (29-10-2024-y.; №10); OAK Tartib-qoida komissiyasi qarori (30-10-2024-y., №10/24); OAK Rayosatining qarori (31-10-2024-y., №363/5).

“Maktabgacha va maktab ta’limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo’yicha
ro’yxatdan o’tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy bilimlarini shakllantirish.....	16
<i>Nazarov Odil Omanqulovich</i>	
"Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasi"da ijtimoiy-pedagogik hamkorlikning o'rni	20
<i>Abirova Umida Nazarovna</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda uchraydigan nutq nuqsonlarini oldini olish va uning ahamiyati	23
<i>Akramov Dostonbek Ikromjon o'g'li</i>	
Pedagogik jarayonda axloqiy qarashlarni shakllantirish usul va vositalari	27
<i>Xudoykulova Shaxlo Mamaniyozovna</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilarining ijodkorligini rivojlantirishda ta'limiy o'yinlarning ahamiyati .	31
<i>Salimova Dilmira Farxodovna</i>	
Aholining iqtisodiy axborot savodxonligini oshirishdagi muammo va kamchiliklar	34
<i>Rajabov Asliddin Xolmirzayevich</i>	
Favqulodda vaziyatlar yo'nalishi ta'limida muloqotning ahamiyati.....	37
<i>Boltayev Baxtiyor Yunusovich</i>	
Biologiya ta'limi va raqamli texnologiyalar	41
<i>E. Po'latova</i>	
Boshlang'ich ta'limga tayyorlov guruhi bolalarini kasbga yo'naltirishda stem yondashuvining ahamiyati	44
<i>Egamova Ravshanoy Surobjonovna</i>	
O'zbekiston TIMSS natijalarini qanday yaxshilashi mumkin?	
Innovatsion ta'lim yondashuvlari va samarali strategiyalar.....	48
<i>G'ayniddinov Shayxislom Tolibjon o'g'li</i>	
Nutq kamchiliklarini bartaraf etishda mutaxassislar hamkorligi	53
<i>Isayeva Mushtariy Alisher qizi</i>	
Developing Student's Critical Skills Through Technology-Enhanced English Lessons	56
<i>Mavlonova Dildora Shuxrat qizi</i>	
Bahrom Ro'zimuhammad she'rlarini o'qitishda integratsiya usulidan foydalanish	60
<i>Nomozova Dilobar Suyun qizi</i>	
Aksiologik yondashuvlar asosida bo'lajak pedagoglarda altruizm ko'nikmalarini shakllantirish: bosqichlar va tamoyillar.....	65
<i>Norboyeva Moxigul Shavkat qizi</i>	
3D Modeling of Virtual Chemical Laboratories	68
<i>Qayumov Jamshid Ma'rufjon o'g'li</i>	
Fostering Metacognitive Skills in Efl Learners Through Ai-Supported Instruction: a Review of Recent Literature	73
<i>Ruzieva Maftuna</i>	
Onlayn va gibrid ta'lim sharoitida mashinasozlik texnologiyasi faniga qiziqishni oshirishning nazariy asoslari.....	78
<i>Sarimsakova Soxibaxon Raxmonjanovna</i>	
Loyihalashtirilgan integral darslar samaradorligi (9-sinflar uchun "metallar va ularning umumiy xususiyatlari" mavzusida)	81
<i>Sharipova Hakima Shavkatovna</i>	
Metacognition and Self-Regulated Learning	85
<i>Turayeva Nazira Ibragimovna</i>	
Методические возможности совершенствования обучения научной письменной речи на основе коммуникативно-деятельностного подхода	88
<i>Меденцева Наталья Петровна</i>	
Transformatsion jarayonlarda tibbiyot oliy ta'lim muassasalari raqobatbardoshligini oshirish strategiyalari	93
<i>Jonibekov Jasur Jonibekovich</i>	
O'zbek milliy musiqasi: boy madaniyat va san'atning ajralmas qismi.....	98
<i>Rustamova Maxsuma Farxodbek qizi</i>	



FAVQULODDA VAZIYATLAR YO'NALISHI TA'LIMIDA MULOQOTNING AHAMIYATI

Boltayev Baxtiyor Yunusovich

Qori Niyoziy nomidagi

Tarbiya pedagogikasi milliy instituti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada favqulodda vaziyatlar yo'nalishidagi ta'limda muloqot madaniyati va muloqot jarayonida kommunikativ madaniyatning ahamiyati hamda ularning asosiy vazifalari yoritilgan. Muvaffaqiyatli faoliyat yuritish uchun bo'lajak xodim qanday bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lishi lozimligi alohida ta'kidlangan. Favqulodda holatlarda to'g'ri, aniq va tezkor muloqot olib borish inson hayoti va xavfsizligini ta'minlashdagi muhim omillardan biri sifatida baholalanadi. Maqolada, shuningdek, favqulodda vaziyatlarda faoliyat yurituvchi mutaxassislar uchun psixologik barqarorlikni shakllantirish, axborotni aniq yetkazish, jamoaviy ishlash va liderlik fazilatlarini rivojlantirishda muloqotning o'rni nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilingan. Muloqot ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan treninglar, amaliy mashg'ulotlar hamda zamonaviy kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish usullari ham ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: favqulodda vaziyat, muloqot madaniyati, kompetensiya, kommunikativ, interaktiv, perseptiv, regulativ, tezkor axborot almashinuvi, psixologik barqarorlik, favqulodda holatlar ta'limi, jamoaviy hamkorlik, liderlik, amaliy mashg'ulotlar, xavfsizlik.

Abstract: This article provides an overview of the communication culture in emergency education and the importance of communicative competence in the interaction process, along with their main functions. It emphasizes the knowledge, skills, and competencies required for future professionals to perform successfully. The ability to communicate accurately, clearly, and promptly during emergency situations is regarded as one of the key factors in ensuring human life and safety. The article also analyzes the theoretical and practical role of communication in fostering psychological resilience, precise information delivery, teamwork, and leadership skills among specialists working in emergency conditions. Furthermore, it reviews training programs focused on developing communication skills, practical exercises, and methods for utilizing modern communication technologies.

Key words: emergency situation, communication culture, competence, communicative, interactive, perceptive, regulatory, rapid information exchange, psychological stability, emergency education, teamwork, leadership, practical training, safety.

Аннотация: В статье представлена информация о культуре общения в образовании по направлению чрезвычайных ситуаций, о коммуникативной культуре в процессе взаимодействия и их основных задачах. Подчеркивается, какими знаниями, умениями и компетенциями должен обладать будущий специалист для успешной профессиональной деятельности. Умение правильно, чётко и оперативно общаться в условиях чрезвычайных ситуаций рассматривается как один из ключевых факторов обеспечения жизни и безопасности человека. Также в статье проанализирована роль общения в формировании психологической устойчивости, точной передачи информации, развитии командной работы и лидерских качеств у специалистов, работающих в условиях ЧС. Рассматриваются тренинги, направленные на развитие коммуникативных навыков, практические занятия, а также методы использования современных коммуникационных технологий.

Ключевые слова: чрезвычайная ситуация, культура общения, компетентность, коммуникативный, интерактивный, перцептивный, регулятивный, оперативный обмен информацией, психологическая устойчивость, обучение в условиях ЧС, командная работа, лидерство, практические занятия, безопасность.

KIRISH

Bugungi globallashuv va xavf-xatarlar kuchayib borayotgan sharoitda favqulodda vaziyatlarga tayyorgarlik ko'rish, ularni bartaraf etish hamda oqibatlarini kamaytirish bilan shug'ullanuvchi mutaxassislarning muloqot madaniyati yuqori bo'lishi zarur. Favqulodda vaziyatlar akademiyalarida tahsil olayotgan kursantlar nafaqat texnik va nazariy bilimlarga, balki psixologik barqarorlik, axloqiy yetuklik hamda samarali muloqot ko'nikmalariga ega bo'lishlari lozim.

Favqulodda vaziyatlar bilan bog'liq tahdidlar – tabiiy ofatlar, texnogen halokatlar, epidemiyalar va boshqa xavfli holatlar – tez-tez uchrab turishi bilan xarakterlanadi. Bunday sharoitda nafaqat texnik bilim va malaka, balki tezkor, aniq va samarali muloqot olib borish qobiliyati ham favqulodda vaziyatlar xodimlari uchun nihoyatda muhim ahamiyat kasb etadi.

Muloqot – bu favqulodda holatlarda axborotni to'g'ri uzatish, harakatlarni muvofiqlashtirish, aholini xabardor qilish, evakuatsiya tadbirlarini tashkil etish, xavfsizlik choralarini ko'rish va yordam ko'rsatish jarayonlarida hal qiluvchi rol o'ynaydi. Favqulodda vaziyatlarda muloqotdagi xatoliklar inson hayoti va mol-mulkiga jiddiy xavf tug'dirishi mumkin. Shu sababli ushbu yo'nalishda tahsil olayotgan mutaxassislar uchun muloqot kompetensiyalarini shakllantirish – dolzarb ilmiy-amaliy vazifa sifatida qaralmoqda.

Shuningdek, muloqot madaniyati, psixologik tayyorgarlik va stress holatlarida to'g'ri aloqani yo'lga qo'yish ko'nikmalarini rivojlantirish bugungi kunda global xavfsizlik tizimining ajralmas tarkibiy qismi hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, ushbu mavzuni ilmiy tadqiq etish zarurati va amaliy ahamiyati yildan-yilga ortib bormoqda.

Muloqot madaniyati – bu faqat nutqiy kompetensiya emas, balki shaxslararo, kasbiy va psixologik hamkorlikni tashkil etuvchi murakkab ijtimoiy-pedagogik hodisadir. Muloqot kishilarning birgalikdagi faoliyatining muhim shartlaridan biri bo'lib, ular o'rtasidagi o'zaro axborot almashish jarayoni sanaladi. Bu insonning tabiiy ehtiyojidir, chunki odamlar bir-biri bilan gaplashmasdan, axborot almashmasdan yashay olmaydilar. Muloqot tufayli kishilar bir-birini tushunadilar, mehnat jarayonida hamkorlikka, hamjihatlikka erishadilar, o'zaro fikr va tajriba almashadilar.

Inson uchun bilim, ko'nikma va malakalar qanchalik hayotiy zarurat bo'lsa, muloqot madaniyatini egallash ham shunchalik muhim hisoblanadi. Chunki muloqot madaniyati – shaxsning yetuklik va komillikka erishganlik belgisi sifatida qaraladi. Muloqot madaniyatini egallash, ayniqsa, bo'lajak favqulodda vaziyatlar xodimlari uchun alohida ahamiyat kasb etadi. Ularning faoliyati doimo xalq bilan bevosita muloqotga kirishishni, o'zaro munosabatda bo'lishni talab qiladi. Bugungi kunda oliy ta'limni tamomlab, amaliy faoliyatga yo'llanma olayotgan barcha kursantlar muloqot madaniyatini puxta egallagan, o'z fikrini erkin ifoda eta oladigan, adabiy til me'yorlariga amal qiladigan mutaxassislar sifatida yetishayotganini, afsuski, ta'kidlash qiyin. Kursantlarda muloqot madaniyati oliy ta'lim jarayonining ajralmas qismi, eng muhim vazifalaridan biri bo'lishi lozim.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

So'nggi o'n yillikda A.A. Boltaboyev ^[1], I.S. Kon ^[2], A.A. Leontyev ^[3], N.D. Tursunov ^[4], A.L. Soliyev ^[5] va boshqa ko'plab olimlar tomonidan muloqot madaniyati va uni shakllantirish muammolarini bartaraf etish yo'llari ishlab chiqilgan hamda amaliy tavsiyalar berilgan. Biroq ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, no-pedagogik oliy ta'lim muassasalarida muloqot madaniyatini to'g'ri shakllantirish hali ham dolzarb muammoligicha qolmoqda. Chunki bunday ta'lim muassasalarida o'quv jarayonining imkoniyatlaridan, tarbiyaviy ishlarni tashkil etish talablari va boshqa zaruriy omillardan yetarli darajada foydalanilmayapti, buning oqibatida esa yondashuvlarda bir xillik yo'q.

Yuqoridagi holatlar muloqot madaniyatini shakllantirish muammosining mutaxassislar tayyorlash sifati bilan bevosita bog'liq ekanligini ko'rsatadi. Bu jarayon, ayni paytda, umuminsoniy, insonparvarlik va axloqiy qadriyatlarni o'zlashtirish hamda ularni amaliyotda qo'llash zarurligini ta'kidlaydi. Ularning bevosita muloqot jarayonida amalga oshirilishi nafaqat yoshlarning shaxsiy va ma'naviy rivojlanishiga, balki mutaxassisning ijtimoiy va kasbiy salohiyatini aniqlashga xizmat qiladi ^[6].

Muloqot madaniyatini anglash kishilar o'rtasidagi muloqot jarayonining to'laqonli kechishini ta'minlovchi, ijtimoiy me'yorlarga muvofiq insoniy xulq-atvorni o'z ichiga oladi. Muloqot insonlarning jamoaviy va guruh faoliyatida kommunikativ hamda yetakchi rol o'ynaydi. Muloqotning mazmuni va shakli esa u amalga oshirilayotgan faoliyatning o'ziga xos xususiyatlari bilan belgilanadi.

Ma'lumki, madaniyatni aniqlashning eng muhim mexanizmi bu – tildir. Biroq zamonaviy jamiyatda tilga xalqning taqdiri, tafakkuri va intilishlarini aks ettiruvchi tirik organizm sifatida qarash zarur. Shu bilan birga, til – boshqa millat vakillari bilan tolerantlik asosidagi munosabatlarni o'rnatishni biladigan, ma'naviy jihatdan boy shaxsni shakllantirish vositasidir. Qolaversa, muloqot jarayonida foydalaniladigan vosita va usullar madaniyat mahsuli ekanligini ham unutmashlik kerak. Muloqot madaniyati, odatda, muloqot jarayonida namoyon bo'ladigan barcha xatti-harakatlar usullarini o'z ichiga oladi. Ular qatoriga nutqni shakllantiradigan va rivojlantiradigan so'zlar, nutqning dinamik xususiyatlari, intonatsiya, imo-ishoralar, mimika, pantomima va boshqa vositalar kiradi. Bularning barchasi shaxslararo tushunishni va o'zaro ta'sirni ta'minlaydigan kommunikativ omillar sifatida baholanadi ^[7].

Psixologlarning ta'kidlashicha, kattalar bilan og'zaki muloqot insonning atrof-muhitni idrok etishi va fikrlash usullarini o'zlashtirishi uchun muhim ahamiyatga ega. Og'zaki o'zaro ta'sir nutqiy muloqot qobiliyatlari orqali amalga oshiriladi, bu esa o'z navbatida nutqiy faoliyat yordamida rivojlanadi va takomillashadi.



Muloqot murakkab va ko'p qirrali jarayon bo'lib, uni turli soha vakillari – faylasuflar, sotsiologlar, madaniyatshunoslar, psixologlar va tilshunoslar – o'z nuqtai nazarlaridan o'rganadilar. Faylasuflar muloqotning inson va jamiyat hayotidagi o'rnini, uning taraqqiyotdagi rolini tahlil qiladilar. Sotsiologlar esa ijtimoiy guruhlar o'rtasidagi muloqot shakllarini va ularning ijtimoiy sabablar bilan bog'liq farqlarini tadqiq qiladilar. Psixologlar muloqotni faoliyat shakli va inson xulq-atvorining bir qismi sifatida, uning psixotipik xususiyatlari hamda ong tuzilishidagi rolini o'rganadilar. Madaniyatshunoslar madaniyat turlari bilan aloqa shakllari o'rtasidagi munosabatlarni tahlil qiladilar. Tilshunoslar esa ijtimoiy va shaxslararo muloqotning lingvistik hamda nutqiy tabiati ustida ilmiy izlanish olib boradilar.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Muloqotni rivojlantirish uchun interaktiv metodlardan foydalanish – xususan, rolli o'yinlar, simulyatsiyalar, favqulodda holatlardagi muloqot ssenariylari asosida tashkil etiladigan mashg'ulotlar – samarali deb hisoblanadi. Amaliy mashg'ulotlar orqali talabalar real vaziyatlarda nutqiy vazifalarni bajarish bo'yicha muayyan tajriba orttiradilar.

Favqulodda holatlarda yuzaga keladigan stressli muhit, vaqt va resurslar cheklovi sharoitida axborotni to'g'ri almashish hayotiy ahamiyat kasb etadi. Bunday vaziyatlarda samarali muloqot quyidagi jarayonlarda muhim vosita hisoblanadi:

- evakuatsiya jarayonlarini muvofiqlashtirish;
- aholiga aniq va to'g'ri ko'rsatmalar berish;
- yordam xizmatlari o'rtasida tezkor axborot almashuvini ta'minlash;
- xodimlar va jabrlanganlar o'rtasida ishonchni mustahkamlash;
- vahima va qo'rquvni kamaytirish.

Muloqotga oid bilimlar favqulodda vaziyatlar xodimlarining kasbiy kompetensiyalari tarkibiga kiradi. Ta'lim jarayonida quyidagi yo'nalishlarga alohida e'tibor qaratish zarur:

- og'zaki va yozma muloqotda aniqlik va qisqalikni ta'minlash;
- axborotni saralash va ustuvorlashtirish qobiliyatini shakllantirish;
- boshqaruv organlari va fuqarolar bilan samarali aloqa o'rnatish;
- stressli holatlarda ijobiy psixologik ta'sir ko'rsatish usullarini o'rganish.

Favqulodda vaziyatlar kursantlarida muloqot madaniyatini shakllantirish jarayonida quyidagi savollar muhokamaga tortiladi:

- Muloqot madaniyati nima?
- U nega aynan favqulodda holatlarda hal qiluvchi ahamiyatga ega?
- Harbiy/professional muomala bilan oddiy ijtimoiy muomala o'rtasidagi farqni qanday izohlaysiz?

Bo'lajak xodim faoliyatida muloqot quyidagi funksiyalarni bajarishi zarur: axborot uzatish, tarbiyalash, o'qitish, emotsional ta'sir ko'rsatish hamda faoliyatga undash. Muloqot jarayonida turli kommunikativ ta'sirlar qo'llaniladi, chunki xodim doimo ishontirish, asoslab berish, da'vat etish, talab qo'yish, ruhiy ta'sir o'tkazish va qiziqtirish kabi vositalarga murojaat qiladi.

Agar bo'lajak xodimda zaruriy kommunikativ ko'nikmalar va kommunikativ madaniyat shakllanmagan bo'lsa, bunday sharoitda nafaqat muloqot jarayoni, balki uning natijalari ham samarasiz kechishi ehtimoldan holi emas.

TAHLIL VA NATIJALAR

Kursantlarning kommunikativ madaniyati ularning kasbiy muloqot jarayonida, ya'ni kommunikativ faoliyatida namoyon bo'ladi. Bu jihat, ayniqsa, favqulodda vaziyatlar sharoitida xodimlarning muloqot sifati va samaradorligini belgilovchi muhim omil sifatida qaraladi.

Hozirgi kunda muloqotning quyidagi asosiy funksiyalari ajratib ko'rsatiladi:

- Axborot-kommunikativ vazifasi – suhbatdoshlar o'rtasida ma'lumot almashuvini ta'minlaydi;
- Kommunikativ vazifasi – muloqot ishtirokchilarining o'zaro harakatlarini tashkil etish va boshqarish imkonini beradi;



- Affektiv-kommunikativ vazifasi – hissiy-ruhiy ta'sir ko'rsatish va his-tuyg'ularni uzatish vositasi hisoblanadi. Shuningdek, muloqotda quyidagi asosiy komponentlar farqlanadi:
- Kommunikativ komponent – axborot almashinuvi;
- Interaktiv komponent – muloqot ishtirokchilarining o'zaro harakatlarini tashkil etish;
- Perseptiv komponent – suhbatdoshlarning bir-birini idrok etishi, tushunishi va ushbu asosda o'zaro anglashuvni shakllantirish.

Muhim jihati shundaki, mazkur funksiyalar muloqot jarayonida bir vaqtning o'zida, kompleks holda sodir bo'ladi.

Perseptiv komponent – suhbatdoshni psixologik mexanizmlar (taqqoslash, identifikatsiya, appersepsiya, refleksiya) orqali tushunish va anglashni nazarda tutadi. Bu jarayon kasbiy samaradorlik uchun muhim bo'lgan quyidagi rollarni egallashni talab etadi:

- Ijrochi roli – faoliyat samaradorligini ta'minlash;
- Administrator roli – insonlar faoliyatini tashkil etish va belgilangan muddatlar hamda tartibga rioya qilinishini nazorat qilish;
- Ijodkor (yaratuvchi) roli – muammolarni hal qilishda innovatsion yondashuvlarni ishlab chiqish;
- Lider roli – jamoani birlashtirish, uni umumiy maqsadlarga yo'naltirish ^[8].

Kursantlar uchun nutqqa egalik qilish – ya'ni fikrni aniq, ta'sirli va maqsadga yo'naltirilgan tarzda ifodalash – kasbiy faoliyatda zaruriy shartlardan biri hisoblanadi. Chunki nutq nafaqat axborot yetkazish vositasi, balki emotsional ta'sir ko'rsatish, tarbiyaviy ta'sir o'tkazish hamda boshqalarda til madaniyatini shakllantirish omili sifatida ham muhim ahamiyatga ega.

Favqulodda vaziyatlar yo'nalishida faoliyat yurituvchi xodimlar nafaqat kasbiy bilim va ko'nikmalarga, balki kommunikativ madaniyatga ega bo'lishlari zarur. Bu madaniyatni shakllantirish, mavjud muammolarning sabablarini aniqlash va o'tmish tajribasini o'rganmasdan turib to'liq va ishonchli ta'lim jarayonini tashkil etib bo'lmaydi. Shu nuqtai nazardan, kursantlarda kommunikativ madaniyatni shakllantirish jarayoni tarixiy tajriba, ijtimoiy munosabatlarning o'zgarishi, ilmiy-texnik taraqqiyot hamda muammoni hal etishga doir nazariy va amaliy yondashuvlarning rivojlanishi bilan uzviy bog'liq holda olib borilishi lozim.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, zamonaviy favqulodda vaziyatlar xizmatlari nafaqat texnik bilim va jismoniy tayyorgarlikni, balki yuqori darajadagi muloqot madaniyatini ham talab etadi. Kursantlar ekstremal sharoitlarda insonlar bilan samarali muloqot qila olishlari, ruhiy barqarorlikni saqlagan holda, aniq va tushunarli til orqali muammolarni hal eta olishlari lozim. Bu esa, o'z navbatida, til madaniyati, kommunikatsiya ko'nikmalari hamda axloqiy-psixologik kompetensiyalarning uyg'unlashuvi orqali ta'minlanadi.

Favqulodda vaziyatlar yo'nalishida ta'lim olayotgan kursantlarda muloqot ko'nikmalarini shakllantirish – nafaqat kasbiy tayyorgarlikning muhim jihati, balki inson hayoti va jamiyat xavfsizligini ta'minlashda hal qiluvchi vosita sifatida namoyon bo'ladi. Bunday ko'nikmalarni rivojlantirish natijasida xodimlar og'ir va stressli holatlarda yanada samarali, tezkor va aniq qarorlar qabul qila olish salohiyatiga ega bo'ladilar.

Shu bois, favqulodda vaziyatlar yo'nalishida ta'lim olayotgan kursantlarda kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish bo'yicha tizimli va bosqichma-bosqich yondashuvni joriy etish zarur. Bu borada interaktiv metodlar, amaliy mashg'ulotlar, simulyatsion treninglar va zamonaviy kommunikatsiya vositalaridan foydalanish ta'lim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Boltaboyev A.A. Muloqot olami: subyektlararo munosabatlar muammosi. – T.: O'zMU axborotnomasi, 2019. №2.
2. Kon I.S. Kulturologiya. – Sankt-Peterburg, 2021. 128 b.
3. Leontyev A.A., Rustamova L.M. Muloqot psixologiyasi. – M.: Akademiya markazi, 2019.
4. Tursunov N.D. Shaxsni muloqotni boshqarish psixologiyasi. – T.: Ilm-fan, 2019.
5. Soliyev A.L., Kogon M.S. Madaniyat va shaxsiyat. – Toshkent–Moskva–Kazan: Nauka, 2020.
6. Jo'rayev N. Muloqot madaniyati va kasbiy etika. – T.: TDYU, 2022.
7. Shirinov B. "Kursantlar til kompetensiyasini rivojlantirish metodlari" // Pedagogika va psixologiya, 2022, №2.
8. Xaydarov F., Xalilova N. Umumiy psixologiya. – Toshkent, 2009. 83 b.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №7

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.